



# JIZZAX VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI



## JIZZAX VILOYAT SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023- YIL YANVAR - DEKABR  
(DASTLABKI MA'LUMOT)




## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2023- yil yanvar-dekabr oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 19000,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 107,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 96,5 % ni tashkil etdi.




### Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning 19,0% ga ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 8,7 % ga, o'sishi kuzatildi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 298,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**



## 2023-yil yanvar-dekabr

Tumanlar miqiyosida, togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. soʻmda

Tumanlar nomi	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Gʻallaorol tumani	29 029,9	36 669,9	7 640,0
Sharof Rashidov tumani	53 357,9	39 136,4	- 14 221,5
Zomin tumani	22 470,0	27 925,0	5 455,0
Jizzax shahri	27 588,5	171 617,4	144 028,9
Zafarobod tumani	14 104,7	11 195,3	- 2 909,4

Jami sanoat ishlab chiqarishi togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash Shahar va tumanlar kesimida jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga 57,6 % Sharof Rashidov tumaniga toʻgʻri kelib 13,1 % ni va Gʻallaorol tumani 12,3 % ni tashkil etdi.

35,5 %

2022- yil

119,0 %

2023- yil


Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-dekabr

FHI,% da



2023- yilning yanvar-dekabr oylarda ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 18336,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 96,5% ini tashkil etdi.


2022-yil yanvar-dekabr

94,1 %

2023-yil yanvar-dekabr

96,5 %

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % (0,2 %) ni o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 53,2 % (25,2 %) ni, o'rta-quyi texnologiyali 15,7 % (20,6 %) va quyi texnologiyalisi - 27,5 % (48,1 %)ni tashkil etdi.







Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 50,5 % ( 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,8 % ( 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,3 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,0 % ( 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,4 % ( 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,4 % ( 2022- yilning yanvar –dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,6 %)ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**  
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da


Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxta linti




O'simlik yog'i (tozalangan)



Trikotaj polotnolar



Yumshoq bug'doy va spelta uni



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish**


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
<b>Paxta tolasi, t.</b>	45 081,6	29 820,0	-15 261,6
<b>Yumshoq bug‘doy va spelta uni, t.</b>	52 254,2	18 674,3	-33 579,9
<b>Paxta chigiti, t.</b>	73 233,5	45 967,9	- 27 265,6
<b>O‘simlik yog‘i (tozalangan), t.</b>	8 619,3	5 079,8	-3 539,5
<b>Paxta linti, t.</b>	5 154,5	2 655,0	-2 499,5
<b>Trikotaj polotnolar, t.</b>	1 877,0	2 449,0	572,0

2023- yilning yanvar-dekabr oyilar davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 18,7 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni ( 62,3 % kamaygan), 29,8 ming tonna paxta tolasi ( 33,9 % ga kamaygan), holda ishlab chiqarilib, 46,0 ming tonna paxta chigiti 37,2 % ga ) kamaygani kuzatildi.

**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**
**37,7 %**
**Paxta tolasi, t.**
**66,1 %**
*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

### Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 108,1 % ga tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylar yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,8 % gacha kuzatildi, fizik hajm indeksi esa, 100,3 % o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 151,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 14,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 98,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylar yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 128,1 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi va ishlab chiqarish hajmi 2340,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilning yanvar-dekabr oylar yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 6,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 96,5 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1184,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.






### Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 75,9 % ni tashkil etgan. 2023- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 125,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 29,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 109,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 94,6 % tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3092,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 110,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 %, fizik hajm indeksi 112,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 518,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 17,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni, fizik hajm indeksi 122,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 647,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Elektr jihozlari ishlab chiqarish




2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, Elektr jihozlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 94,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,7 % ni, fizik hajm indeksi 135,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 701,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish


2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 119,3 % ga oshgan.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 95,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 376,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 285,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ulushi 1,5 % ini) tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 24,1 % ga pasayishi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	299 275,3	206 403,9	-92 871,4
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	80 633,4	78 785,9	-1 847,5

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 80,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ini) tashkil etdi.



## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	63 731,7	62 803,6	-928,1
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	33 849,2	18 083,8	-15 765,4

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 8,2 % ga o'sishi kuzatildi, shuningdek chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 47,3 % ga pasayishi kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 10772,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 187,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 56,7 % ni tashkil etdi.

### Oziq-ovqat mahsulotlari

2022-yil  
yanvar-dekabr

26,2%

2023-yil  
yanvar-dekabr

8,8%

### Nooziq-ovqat mahsulotlar

2022-yil  
yanvar-dekabr

73,8%

2023-yil  
yanvar-dekabr

91,2%




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 8,8 % (2022- yil yanvar-dekabr oylarida 26,2 %) ni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib 25,8 % ni va Zarbdor tumani 10,1 % ni, Zomin tumani 19,7 % ni hamda Paxtakor tumani 15,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Baxmal tumanida (106,2 %), Zomin tumanida (124,1 %) hamda Forish tumanida (108,2 %), qayd etildi.



**Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 6,2 % shuningdek, G'allaorol tumani 81,8 %, ni, hamda Zomin tumani 2,2 % ni tashkil etdi.



## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 4,5 % shuningdek, G'allaorol tumani 89,2 %, ni tashkil etdi.

**3054,8** mlrd. so'm


2021- yil yanvar-dekabr

**4081,6** mlrd. so'm

2022- yil yanvar-dekabr

**9829,6** mlrd. so'm

2023- yil yanvar-dekabr



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01

2021- yil

151,5 %

02


2022- yil

115,6 %

04

2023- yil

227,9 %




o'sish sur'ati



mlrd. so'm

## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 25,8 % ni, shuningdek, Paxtakor tumani 15,6 % ni, Zomin tumani esa 19,7 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati  
mlrd. so'm



### Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 20,6 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 47,0 % ni, Zafarobod tumani esa 8,1 % ni tashkil etdi.

#### Jizzax viloyati

2021- yil

8704,1 mlrd. so'm

2022- yil

11149,5 mlrd. so'm

2023- yil

19000,6 mlrd. so'm



2021- yil

110,2 %

2022- yil

107,8 %

2023- yil

107,4 %

Jizzax viloyati

107,4

19000,6

Jizzax shahar

98,7

3907,3

Arnasoy

105,0

373,6

Baxmal

108,7

108,4

G'allaorol

118,1

8933,9

Sharof Rashidov

98,5

539,9

Do'stlik

100,6

975,7

Zomin

98,3

709,8

Zarbdor

103,4

367,5

Zafarobod

109,0

1548,2

Mirzacho'l

109,3

109,7

Paxtakor

107,2

699,7

Forish

103,2

675,6

Yangiobod

109,1


51,3

FHI, % da

mlrd. so'm

### Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (20172,4 ming so‘m), Zafarobod (29120,5 ming so‘m) tumanida hamda G‘allaorol (48324,3 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (12739,6 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.





o‘shish sur‘ati  
ming. so‘m





Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi




Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 628,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 24,4 % ni tashkil etdi.



## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 7222,8 ming so'm bo'lgani holda, Jizzax shahrida 3453,3 ming so'mni, Arnasoy tumanida 4050,0 ming so'mni, G'allaorol tumanida 47638,2 ming so'mni tashkil etdi.

### Jizzax viloyati



o'sish sur'ati

ming. so'm

## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda viloyatda 2571 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 722 tasi ( faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 28,1 % i ) Jizzax shahriga, 373 tasi (14,5 %) Sharof Rashidov tumaniga, 295 tasi ( 11,5 %) G'allaorol tumaniga, 245 tasi ( 9,5 %) Zomin tumaniga va 159 tasi (6,2 %) Zarbdor tumaniga to'g'ri kelmoqda.



### Jami yangi tashkil etilgan



### Jami faoliyat yuritayotgan



## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 66 ta loyiha bo'yicha 12468,7 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 30,7 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 1510 ta yangi ish o'rinlari yaratildi, o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 263,2 % ga oshgan. Shu bilan birga, 2022- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining 59,8 % ni tashkil .